



NOTO'LIQ OILANING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrası v/b. dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Termiz davlat pedagogika institute
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika yonalishi 1-bosqich talabasi
Mamarejabova Jasmina Alisherovna
+998773772712
jasminamamarejabova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada noto'liq oilalarda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq ijtimoiy va pedagogik muammolar, ota yoki onaning yo'qligi bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, bunday oilalardagi pedagogik bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Noto'liq oila, ijtimoiy moslashuv, pedagogik korreksiya, identifikatsiya, deviant xulq-atvor, psixologik muhit.

Kirish

Oilada faqat bir ota yoki ona bo'lsa, bunday oila noto'liq oila deb ataladi. Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar turlicha yuzaga keladi. Oilada er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli oila noto',liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojeya, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi



hurmati, unga nisbatan, uning shaʼniga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan notoʻliq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. «Tirik yetimlik» jamoatchilik oʻrtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bolada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ajralish faqatgina ajralgan erxotinlarga emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, ajralish otasiz yashayotgan qiz bolaning his-tuygʻulariga, onasiga boʻlgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz oʻsayotgan qizning ruhiyatiga salbiy taʼsir qiladi. Koʻpincha ajralishayotganlardan ajralish sababi soʻralsa, ular qandaydir hamma uchun birdek boʻlib qolgan sabablarni koʻrsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «oʻzga shaxsning aralashuvi», «qoʻpollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noʻrin aralashuvi» kabilar. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, oiladagi maʼnaviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birlarini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» oilaning inqiroziga asosiy sabab boʻla olmaydi. Aksincha vaziyatlarda esa jamiyat uchun – notoʻliq oilalar soni koʻpayadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo boʻladi, foxishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarining ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimoiy faoliyati susayadi. Erkaklarda yolgʻizlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilishni va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Oila aʼzolari tomonidan bolalar oldiga qoʻyiladigan talablarning birligi, oʻzaro masʼuliyat va taʼsir koʻrsatishdagi uygʻunlik bola shaxsining har tomonlama rivojlanishining muhim manbai hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola yashayotgan va tarbiyalanayotgan oila uning uchun tabiiy manba boʻlib, u bolaning harakteri va xulq-atvorida alohida iz qoldiradi. Bola shaxsi koʻp jihatdan va asosan, oilada shakllanadi. Yashashning boshlangʻich qoidasini oʻrganadi. Oilaning tarbiyaviy taʼsiri shunchalik kuchli boʻladiki va bizning nazarimizda otaonalarning harakterlari xususiyatlari bolaga biologik yoʻl bilan oʻtganday tuyuladi. Shuning



uchun ham oilani "hissiyotlar maktabi" deb bejiz aytilmaydi. Oiladagi maishiy turmush sharoiti, oila jamg'armasi, qadriyatlari, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ularning xulq-atvorlari, axloqiy sifatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari bolaga ilk yoshlik davridanoq o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa ota va onaning ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy sifatlari kelgusida bolada qanday harakter xususiyatlari shakllanishini oldidan belgilab beradi. Chunki bola eng avvalo o'ziga yaqin bo'lgan kishilarga taqlid qiladi, ularning xulq-atvorlarini o'zida ifoda eta boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning xulq-atvorlariga qarab oilani, oila tarbiyasining harakterli tomonini baholash mumkin. Agarda bolaning xulq-atvorida salbiy xatti-harakatlar mavjud bo'lsa, oila va undagi tarbiyaning, namunali, ta'sirchan emasligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Bolalar tarbiyasida namunali oilalar bilan bir qatorda bolalarga moddiy sharoit yaratish bilangina chegaralanadigan, bolaning tarbiyasi, uning kelajagi haqida o'ylamaydigan, e'tibor bermaydigan noto'liq oilalarni ham uchratish mumkin. Oila a'zolarining ajralishlari yoki ota va onaning birining vafot etishi natijasida noto'liq oilalar paydo bo'ladi. Oila a'zolaridan birining bola tarbiyasida qatnashmasligi qator obyektiv qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada bola tarbiyasi bilan shugullanuvchi onaning zimmasiga ikkita og'ir vazifa: o'z qaramog'ida qolgan bolalarni moddiy jihatdan ta'minlash va ularning tarbiyasi uchun javobgar bo'lish mas'uliyati yuklanadi. Bundan tashqari yoig'iz ona juda katta ruhiy qiyinchilikni hamda bolalar tarbiyasiga doir katta javobgarlikni his qila boshlaydi. Noto'liq oilaga xos harakterli xususiyat uning o'ziga xosligi (yopiqligi)dir. Tevarak-atrofdan unga ta'sir etish birmuncha qiyinroq bo'ladi. Chunki oila a'zolari ona va bolalar to'liq oila a'zolariga nisbatan kamgapligi, kamsuqumliligi va tortinchoqligi bilan ajralib turadi. Noto'liq oilada o'ziga xos ruhiy muhitning mavjudligi va uning vaqti-vaqti bilan o'zgarib turishi bu oilada tarbiyalanayotgan bolaning aqliy, axloqiy va ruhiy kamolotiga alohida ta'sir etadi. Masalan, bolaning ota-onasi bilan bo'lgan osoyishta va erkin munosabati-uning ijtimoiy ongiga, xulq-atvoriga, o'z-o'ziga bo'lgan



ishonchining ortib borishiga ijobiy ta'sir etadi. Tekshirishlardan ma'lumki, to'liq oilada tarbiyalangan bola odatda oila va oila a'zolari to'g'risida kamroq tashvishlanadi, o'z oilasi to'g'risida hotirjamlik hissi mavjud bo'ladi. Oilaning ajralishi tufayli sodir bo'ladigan to'xtovsiz oilaviy nizolar va son-sanoqsiz mojarolar oilaviy muammolarning tez-tez muhokama qilinishi bolaning osoyishtaligi, hotirjamligini, tinchini, huzur-halovatini yo'qotadi, o'ziga nisbatan ishonchsizlikning ortishiga sabab bo'ladi. Kuzatishlar natijasida bola qanchalik kichik yoshda bo'lsa oila va uning oqibatlarini, ajralishini tasavvur qila olmaydi degan tushuncha noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Bolalar qanday yoshda bo'lishlaridan qat'iy nazar oilaviy nizo va ajralishdan qattiq iztirob chekadilar, ruhiy tushkun, odamovi bo'lib qolishadi. Sababsiz oilaviy mojarolar bolaning tasavvurida xotirasida yoqimsiz iz qoldiradi, bu esa uning ruhiy jihatdan normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bunday oila bolalarida qo'rquv hissi, hadiksirash hissi uyg'onadi va hatto bolalarning nutqlarida nuqsonlar paydo bo'la boshlaydi, duduqlanib, ishonchsizlik bilan gapiradigan bo'lib qoladilar. Maktabgacha yoshidagi bolalar oila ajralishiga dastlab juda sust, sezilarsiz munosabatlarni bildirsa-da, asta-sekin katta maktabgacha yoshida ular otasiz yoki onasizlikni chuqurroq his eta boshlaydilar. Bolalarning otasizlikni his etishlarini ularning turli xatti-harakatlarida, jumladan, onasiga bo'lgan munosabatlarida o'zgarishlarda kuzatish mumkin. Bolalarning tevarak-atrofdagi voqelikka bo'lgan kuchli qiziqishlari susaya boshlaydi, tengdoshlari va kattalarga bo'lgan munosabati keskin o'zgaradi, injiq, janjalkash, gap ko'tara olmaydigan va kattalarga quloq solmaydigan bo'lib qoladilar. Eng xavflisi shundaki, boladagi samimiylik, g'mho'rlik o'rni asta-sekin bag'ritoshlik, befarqlik egallay boshlaydi, chunki bola oila ajralishi jarayonini, eng yaqin kishilarining bir-birlariga bo'lgan sovuqqonlik, berahmlik munosabatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, g'azablangan va nihoyat, bunga o'rganib qolganligidir. Bundan tashqari, bola qolgan onaning tarbiya faoliyatida ruhiy o'zgarishlarning yuz berishi, bolaga nisbatan o'zini mehribonroq, g'amxo'rroq qilib



ko`rsatishi, uning barcha ehtiyojlarini to`la qondirishga harakat qilishi otasiga nisbatan bolada g`azab uyg`otishiga urinishi, intilishi bolada yangi salbiy munosabatlarni: e`tiborsizlik, beparvolik, ba`zi hollarda esa qaysarlik va o`jarlik yolg`onchilik va irodasizlikning shakllanishiga sabab bo`ladi. Natijada, bolaga tarbiyachilar tomonidan ta`sir etish qiyinlashadi, asta-sekin pedagoglar bunday bolalarni tarbiyasiga qiyin va tarbiyadan chetda qolgan bolalar deb atay boshlaydilar. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz: Kuzatilgan 17 ta maktabgacha ta`lim tashkilotlarida hammasi bo`lib 408 bola noto`liq oilada tarbiyalanmoqda. Shulardan 69 tasini ota, 339 tasini esa ona tarbiyalamoqda. Aniqlanishicha, 408 boladan 31 tasining tarbiyasi qiyinlashib borayotganligi ma`lum bo`ldi. Maktab yoshidagi bolalarga nisbatan olinganda, tarbiyasi qiyinlashib borayotgan bolalar soni noto`liq oilalar hisobiga yanada ortib borayotganligi o`qituvchilarni tashvishlantirmoqda. Oilada tarbiyaning bir tomonlama olib borilishi, bolaning shaxsiy xususiyatiga yetarlicha e`tibor berilmasligi, ya`ni ota va ona tomonidan teng ta`sirning yo`qligi, bola bilan bo`ladigan munosabatlarning sifat jihatidan o`zgarganligi asta-sekin unda otasiga yoki onasiga nisbatan yotsirash hissining uyg`onishiga sabab bo`ladi, bu esa uning rivojlanishiga katta xavf tug`diradi. Oiladagi yangicha yashash sharoiti bola ruhiyatiga ikki xil ta`sir etadi: faqat ota yoki onaning ta`sirida bola bir tomonlama rivojlanadi va aksincha, ota yoki onaning maqsadga muvofiq oqilona ta`sir etishi bola rivojlanishining bir tekis bo`lishini ta`minlaydi. Har ikki holatning ijobiy va salbiy tomonlarini bilish, bola tarbiyasi uchun ta`sir ko`rsatish metodlarini aniqlash muhimdir. Izlanishlar shuni ko`rsatmoqdaki, noto`liq oilaning tarbiyaviy ta`siri ijobiy natija berishiga nisbatan ko`proq salbiy ta`sir etmoqda. Chunki, bugungi noto`liq oila boshlig`ining ruhiyati bundan 20 yil oldingi noto`liq oila boshlig`ining ruhiy xususiyatidan tubdan farq qiladi. Onaning iqtisodiy jihatdan ta`minlangani ayrim hollarda uning ma`naviy qiyofasini o`zgartirib yubormoqda, natijada bunday ona tarbiyasidagi bolaning rivojlanishi notekis bo`lib, yoshligidagi xulq-atvori maktab yoshiga yetganda keskin



o`zgaroqda. Onasini mensimaydigan, unga ishonmaydigan, o`zini onadan ustun tutadigan bo`lib qolishi va tarbiyaviy ta`sir etib bo`lmaydigan holat vujudga kelib, bola tez orada tarbiyadan chetda qolmoqda. Ko`pincha onaning tarbiyasida qolgan bolaning hayotiy tajribasi bir tomonlama, tor bo`ladi: hayoti davomida hosil bo`lgan har qanday yangi vaziyatda bola o`zining o`rnini, o`zini qanday tutish zarurligini mustaqil belgilashda, qarama-qarshiliklarni yengishda boshqa bolalarga nisbatan o`quvsiz ekanligi sezila boshlaydi va uning o`ziga bo`lgan ishonchi kamayadi. Onaning chegarasiz erkalashlari, ortiqcha mehribonchiligi, bolaga har doim kichkina, ko`ngli yarim deb qarashi bolada mustaqillikning rivojlanishini kechiktiradi, unga o`z kuchiga ishonmaslik, har doim onasiga suyanib ish ko`rish odati shakllanadi. Bolaning ijtimoiy tushunchasi to`liq oiladagi bolaning tushunchasidan birmuncha tor bo`ladi, chunki onaning oilada ham ona, ham ota vazifasini bajarishi uning ijtimoiy tasavvurlarini kengaytirmaydi. Noto`liq oilada tarbiyalangan bolalarga ijtimoiy hayot to`g`risidagi tushunchalarning torligi o`g`il bolalarga nisbatan qiz bolalarda yaqqol seziladi, chunki o`g`il bolalarning sport o`yinlariga, texnikaga bo`lgan qiziqishlari o`yin, mehnat faoliyatlarida o`zaro munosabatda bo`lishlari ularda ijtimoiy tushunchalarning ma`lum darajada o`shishini ta`minlaydi. Qiz bolada esa aksinchadir, chunki ular hayotining asosiy qismini onasi va qiz bolalar o`rtasida muloqotlarda o`tkazadi, bu hol uning kelgusi hayot yo`lini belgilashida ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba`zan noto`liq oilada tarbiyalanayotgan bolaning xulq-atvorida aqliy rivojlanishida orqada qolish sodir bo`ladi. Maktabda esa o`zlashtirishida va orqada qolishning sababi oilada ona tomonidan qulay psixologik muhitning yaratilmaganligi onaning shaxsiy masalalarini hal etish bilan bandligi yoki bolaga nisbatan beparvoligi hisoblanadi. Bunday hollarda bolaning rivojlanishi va tarbiyasi maktabgacha ta`lim tashkilotlarining alohida diqqat e`tiborida turishi va unga yordam berishlari zarur. Tarbiyachi pedagoglar esa noto`liq oiladan keladigan bolalarni o`rganishi ularni tarbiyalashi, sabr toqatli bo`lishi va bolaga shaxsiy yondashishi zarur.



Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, noto‘liq oila muammosi faqat bir shaxs yoki bir oilaning ichki ishi emas, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy barqarorligiga daxldor bo‘lgan strategik masaladir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik adaptatsiyasi bir necha muhim omillarga bog‘liq.

Birinchidan, noto‘liq oilalardagi pedagogik bo‘shliqni to‘ldirishda **“ijtimoiy kompensatsiya”** mexanizmini kuchaytirish zarur. Bunda maktab va mahalla instituti faqat nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va himoya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Ota yoki onaning yo‘qligi natijasida yuzaga keladigan “psixologik vakuum”ni bola sport, san’at yoki intellektual to‘garaklar orqali qoplashi uchun sharoit yaratish lozim.

Ikkinchidan, noto‘liq oilalardagi tarbiya jarayonida **“jinsiy-rolli identifikatsiya”** inqirozini bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarida erkak pedagoqlarning (ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta sinflarda) ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ota tarbiyasidan mahrum bo‘lgan o‘g‘il bolalar uchun ijtimoiy xulq-atvor modelini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, muammoning ildiziga qarshi kurashish maqsadida, universitet talabalari va yoshlar o‘rtasida **“Oila mas’uliyati”** va **“Ongli ota-onalik”** tushunchalarini targ‘ib qiluvchi pedagogik kurslarni ko‘paytirish lozim. Zero, noto‘liq oilalar sonining kamayishi — kelajakdagi ijtimoiy muammolarning oldini olishning eng samarali yo‘lidir.

Xulosa qilib aytganda, noto‘liq oila farzandini jamiyatga to‘laqonli moslashtirish uchun quyidagi **tizimli yondashuv** taklif etiladi:



1. **Diferensial yondashuv:** Har bir noto‘liq oilaning kelib chiqish sababidan kelib chiqib (vafot, ajrim yoki yolg‘iz onalik), alohida individual pedagogik traektoriya chizish.

2. **Psixologik monitoring:** Bunday oila farzandlarining emotsional holatini doimiy kuzatib borish va depressiv holatlarning oldini olish.

3. **Huquqiy va pedagogik savodxonlik:** Yolg‘iz ota yoki onaga farzand bilan muloqot qilishning o‘ziga xos usullarini o‘rgatuvchi “Ota-onalar maktabi”ni tashkil etish.

Shunday qilib, noto‘liq oila — bu pedagogik inqiroz emas, balki maxsus yondashuvni talab qiluvchi ijtimoiy holatdir. Davlat, mahalla va ta’lim muassasasining o‘zaro integratsiyasi orqali ushbu oilalardagi bolalarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ularning sog‘lom ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta’minlash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. □ **Shoumarov G‘.B.** "Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik". – Toshkent: "Sharq", 2010. (*Oila va uning muammolari bo'yicha eng asosiy manbalardan biri*).
2. □ **G‘oziyev E.E.** "Ontogenez psixologiyasi". – Toshkent: "Noshir", 2018. (*Bolaning yosh davrlari va rivojlanish bosqichlari tahlili*).
3. □ **Xolmatova M.** "Oila pedagogikasi". – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2021. (*Oila tarbiyasi va ijtimoiy pedagogika masalalari*).
4. □ **Sog‘inov N.S.** "Oila psixologiyasi va ijtimoiy himoya". – Toshkent, 2019. (*Noto‘liq oilalar bilan ishlashning ijtimoiy aspektlari*).
5. **Rasulov A.I.** "Shaxs psixologiyasi va uning shakllanishi". – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2020.